

O‘ZBEK XALQ MADANIYATIDA GULLAR RAMZI VA NAMANGAN TAJRIBASI

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat

kafedrasi o‘qituvchisi

Urinov Islombek Olimjon o‘g‘li

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Turizm va mehmondo‘tlik yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Boydavlatova Gulyuz Telmonjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Namangan shahrining qadimiy tarixi, nomining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, qadimgi Axxi (Axsikent) shahrining o‘rni, Namanganning madaniy merosi va bugungi kundagi obod hayoti haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Namangan, tarix, Axsikent, qadimiy Shahar, festival, gullar shahri.

Аннотация: В данной статье рассматривается об истории города Наманган, происхождении его названия и этапах развития. Также представлена информация о роли древнего города Ахсикент, культурном наследии Намангана и современной жизни города.

Ключевые слова: Наманган, история, Ахсикент, фестиваль, древний город.

Annotation: This article describes the history of the city of Namangan, the origin of its name and the stages of its development. It also provides information about the development role of the ancient city of Tashkent, Namangan’s cultural heritage and the modern life of the city.

Keywords: Namangan, History, Architect, Culture, festival, City of flowers.

Fargʻona vodiysi Oʻzbekistonning eng goʻzal va qadimiy shaharlaridan biridir. Namangan mamlakatning shimoliy qismida, Fargʻona vodiysining markazida joylashgan. Bu shahar oʻzining betakror tabiati, mehnatsevar odamlari va eng asosiysi, har yili oʻtkaziladigan gullar festivali bilan mashhurdir. Shu sababli Namangan “Gullar shahri” deb ataladi.

Tarixiy manbalarga koʻra XV–XVI asrlarda shakllana boshlagan. Ammo hududda odamlar bundan ham ancha oldin qadimiy davrlardan beri yashab kelishgan. Baʼzi tarixchilarning fikricha, Namangan atrofida qadimda Axsikent nomli yirik shahar mavjud boʻlgan. Bu shahar Fargʻona vodiysining eng yirik savdo va madaniyat markazlaridan biri boʻlgan. Ammo XVII asrlarda Axsikentni kuchli zilzila vayron qilgach, uning aholisi hozirgi Namangan hududiga koʻchib oʻtishgan. Shu tariqa yangi shahar Namangan vujudga kelgan.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda turizim Oʻzbekistonda Respublikasida taraqqiy eʼtib bormoqda va oʻzining milliy festivallari orqali juda koʻplab xorijiy mamlakat mexmonlarini qabul qilmoqda hamda oʻz navbatida yuqori saviyadagi turli xil milliy madaniyatini koʻrsatib oʻtmoqda. Jahonda esa oʻzining maʼlum bir mavqeyiga ega boʻlmoqda, andoza sifatida juda koʻp yillardan beri Oʻzbekiston Respublikasining Samarqand shahrida Sharq taronalari musiqa festivali, Namangan shahridagi Xalqaro Gullar festivali va Qoʻqon shahridagi hunarmandchilik festivallari hamda boshqalar boʻlib oʻtmoqda. Soʻngi yillarda juda ham koʻplab tashrif buyuruvchilar koʻpaymoqda festivallar tufayli hamda bu rivojlanish va milliylikni koʻrsatmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida turizimni rivojlanishida eʼtiborni qaratish maqsadida qaror va farmonlar qabul qilingan. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi 2019-yil 18-iyuldagi Qonuni OʻRQ “Turizim” toʻgʻrisida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoniga binoan Qoʻmita tomonidan har yili Turizm sohasidagi biznes gʻoyalar fabrikasi festivali tashkil etiladi[1]. Taʼkidlanishicha, biznes gʻoyalar innovatsion yechimga ega zamonaviy turistik mahsulotlarni yaratishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak.

Kelib tushayotgan barcha takliflar tahlilidan keyin festivalning eng yaxshi loyihalar bo'yicha g'oliblari aniqlanadi.

Shu qatori 2019-yili 21-22-mart kunlari Shahrisabzdagi festeval bolib o'tdi. Festevalda turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan Navro'z umumxalq bayrami doirasida uyushtirilgan mazkur festival MDH davlatlari dizaynerlari va modelerlarini Shahrisabzda jamladi. Unda O'zbekistonning eng sara dizaynerlarini sanab o'tamiz; "Ra'no collection", "Sindor collection", "Mohigul", "Bukhara brilliant silk", "Banoras", "Guzal collection", "Istorakhan", "Nataly Kondra", "Nodirabegim", "Iroda Agzam Xoja", "Dilorom collection", "Azima", "Kafa" brendlari ostida ish olib borayotgan dizaynerlar bilan bir qatorda, Rossiyaning "Asian spirit", Ozarbayjonning "Gulnara Khalilova", Turkmanistonning "Ayna izbasar", Qirg'izistonning "Kate Zabolotnova", Qozog'istonning "Aynura Maidanova", Gruziyaning "Ketisashvili Mari" brendlari o'zlarining milliy liboslar kolleksiyalari bilan ishtirok etishdi. Yuqoridagi rasimlardan dizaynerlarni ishlari mahsulini ko'rishimiz mumkin va festival doirasida Shahrisabz shahri tarixiy markazida o'zbek milliy liboslari, urf-odatlari, taomlar ko'rgazmalari, sumalak sayillari, dorbozlar va polvonlar musobaqalari, folklor dastalarning chiqishlari, milliy taomlar tayyorlash mahorat darslari, xorijiy dizaynerlar tomonidan yosh dizaynerlar uchun mahorat darslari bo'lib o'tdi.

Namanganda joriy yilning 21-maydan 4-iyunga qadar xalqaro gullar festivali bo'lib o'tadi. Oltmish ikkinchi bor o'tkaziladigan festivalga 2,5 milliondan ortiq mehmonlar tashrifi kutilmoqda. Tadbir Madaniyat va turizm vazirligi, Namangan viloyati hokimligining Madaniyat va turizm boshqarmasi hamkorligida tashkil etiladi[2] Ta'kidlash kerakki, festival o'z tarixida ikkinchi bor ikki hafta (joriy yil may oyining so'nggi haftasi va iyun oyining birinchi o'n kunligida) davom etadi. 2022-yilda festivalga 30 dan ortiq xorijiy davlatlardan mehmonlar tashrif buyurgan bo'lsa, bu yil 40 dan ortiq mamlakatdan mehmonlar tashrifi kutilmoqda. Ular orasida diplomatik korpus vakillari, Namangan bilan birodarlashgan viloyat va shaharlar mutasaddilari, hamkor qo'shma korxonalarning chet ellik rahbarlari ham qatnashishi rejalashtirilgan. Qolaversa, bayramda ishtirok etadigan gulchilar geografiyasi ham kengaydi: o'tgan yili Janubiy Koreya,

Hindistondan gulchilar ko‘rgazmada ishtirok etgan bo‘lsa, bu yil Germaniya, Hindiston, Polsha, Janubiy Koreya, Qirg‘iziston va Italiya gulchilari qatnashadi. Bundan tashqari, festival bo‘lib o‘tadigan Namangan shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli istirohat bog‘ida 15 million, shahar ko‘chalarida 10 million, jami 25 million gul va ko‘chatlar ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, shahar ko‘chalari turfa xil shaklda bezatiladi. Hozirgi kunda Namangan viloyatidagi 25 ta mehmonxona, 9 ta xostel, 526 ta oilaviy mehmon uylari, 6 ta yotoqxona, 18 ta sanatoriy va 4 ta dam olish maskani 8,5 mingdan ortiq mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega. Festival arafasida esa yana 5 ta mehmonxona ishga tushiriladi. Shu bilan birga, festival mehmonlariga xizmat ko‘rsatish uchun jami 80 kishidan iborat volontyorlar guruhi shakllantirilmoqda[3]. Xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan yoshlar shaharning mo‘jaz xaritalari va bukletlar bilan ta‘minlanadi. Festivalning madaniy dasturi ham boy va qiziqarli bo‘lishi kutilmoqda. Xususan, “Zahiriddin Muhammad Bobur nomli istirohat bog‘i, “Afsonalar vodiysi” tematik parkida o‘rnatiladigan sahnalarda shoir va yozuvchilar, sirk ustalari, o‘zbek estradasi yulduzlari va folklor ansambllari chiqishlari namoyish etiladi.

Namangan so‘zi fors tilidagi “Namak-kan” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “Tuz kon” degan ma‘noni anglatadi. Chunki qadimda bu hududda tuz qazib olish joylari bo‘lgan. Shu sababli shahar “Namak-kan” deb atalgan, keyinchalik bu so‘z “Namangan” shaklida o‘zgarib qolgan. XVIII–XIX asrlarda Namangan Farg‘ona vodiysining muhim savdo, hunarmandchilik va madaniyat markaziga aylangan[4]. Bu davrda shaharda ko‘plab masjid, madrasa, hammom va bozorlarga ega bo‘lgan qadimiy mahallalar barpo etilgan.

Bugungi kunda Namangan shahri va viloyati iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma jihatdan tezkor o‘sisdi. Masalan 8 yil ichida viloyatga 7 milliard dollar atrofida xorijiy sarmoya jalb qilingan va 8 mingga yaqin yangi korxonalar ochilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Namangan viloyatining rivojlanishi uchun quyidagi yechim vazifalar belgilangan. 2025-yil oxirigacha 4,2 milliard dollar sarmoya jalb etish, 323000 kishini ish bilan ta‘minlash, vazifa qilib topshirilgan.

Bugungi kunda Namangan nafaqat sanoat va madaniyat markazi, balki go‘zalligi bilan ham mashhur. Shaharda “Gullar festivali”, “Navro‘z bayrami” kabi tadbirlar

o‘tkazilib, bu an’analar va mehnatsevar xalqini dunyoga tanitmoqda. Prezidentimiz 2022–2023-o‘quv yilidan boshlab qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalaridan gulchilik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yilsin deb buyruq berganlar[5].

Namangan o‘zining tarixiy qadimiy an‘analari bilan zamonaviy hayot uyg‘unlashgan shahar. U o‘zining tarixi, madaniy merosi va gullarga boy go‘zal manzaralari bilan O‘zbekistonning eng faxrli shaharlaridan biridir. Shaharlarda yangi parklar, sayilgohlar va gullar bog‘larini ko‘paytirish, mavjudlarini esa namunaviy ravishda saqlash va obodonlashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun mahalliy tarixiy obidalar va kun tartibidagi ekskursiya yo‘nalishlarini yaratish va mehmonxona xizmatlarini yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti - president.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti - gov.uz
3. UzDaily yangiliklar portali - uzdaily.uz
4. Yaxshi va yangiliklar portali - nuz.uz